



KOREYS VA O'ZBEK DISKURSIDA AXLOQIY VA IJTIMOY BAHO BERUVCHI PEYORATIV MUROJAATLARNING IFODALANISHI

Noila Mirxamidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

noilamirhamidova@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-9516-5101>

Annotatsiya: Maqolada koreys va o'zbek diskursidagi axloqiy va ijtimoiy baho beruvchi peyorativ murojaatlar semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tadqiq etilgan. Axloqiy va ijtimoiy baho beruvchi peyorativ murojaatlar semantik jihatdan vijdon va halollikni inkor etuvchi, axloqsizlik va betayinlikni bildiruvchi, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatsizlikni ifodalovchi murojaatlarga ajratilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: diskurs, peyorativ murojaat, salbiy munosabat, konnotatsiya, emotsional-ekspressivlik.

Kirish. Koreys va o'zbek diskursida suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabatni bildiruvchi peyorativ murojaat birliklaridan keng foydalaniladi. "Peyorativ leksik qatlamni ma'lum bir so'zlar, so'z birikmalari yoki salbiy ma'nodagi ifodalar tashkil etib, ular suhbatdoshni kamsitish, haqoratlash maqsadida ishlatiladi"¹⁰.

Koreys va o'zbek diskursidagi murojaat birliklarida peyorativ konnotatsiya, asosan, g'azab, haqorat, do'q-po'pisa; kesatish; kamsitish hamda mazax qilish kabi his-tuyg'ularni ifodalab lisoniy kamsitishni yuzaga chiqaradi.

Koreys va o'zbek tillaridagi peyorativ murojaatlarni nutqdagi his-hayajonni ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Hayvon nomlariga asoslangan murojaatlar
2. Axloqiy va ijtimoiy baho beruvchi murojaatlar
3. Aqliy yoki ruhiy holatni kamsituvchi murojaatlar
4. Qarindoshlik atamalariga asoslangan murojaatlar.

Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillaridagi axloqiy va ijtimoiy peyorativ murojaatlar tahlilga qilinadi. Axloqiy va ijtimoiy peyorativ murojaatlar insonning axloqi, xulqi, ijtimoiy mas'uliyati, uning jamiyat me'yorlariga muvofiq yoki nomuvofiqligini salbiy baholashga qaratiladi. Bunday murojaatlar, asosan, kishining aqliga yoki jismoniy holatiga emas, balki uning qanday odam ekanligi urg'u beradi. Axloqiy/ ijtimoiy peyorativ murojaatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) vijdon va halollikni inkor etuvchi murojaatlar;
- 2) axloqsizlik va betayinlikni bildiruvchi murojaatlar;

¹⁰ Ромазанова О. В. Коммуникативно-прагматические аспекты обращения в разноструктурных языках (на материале английского и татарского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 12.



3) ijtimoiy mas'uliyatsizlikni ifodalovchi murojaatlar.

1) Vijdon va halollikni inkor etuvchi murojaatlar ko'proq erkaklik sha'niga qaratilgani uchun ular, asosan, erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Quyida ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

Koreys tilida 이놈 [inom] qo'pol va ustunlikni ko'rstuvchi erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan haqoratli murojaatlardan biri hisoblanadi:

이놈들, 나는 너희보다 높은 사람이다 [inomdeul, naneun neohuiboda nop-eun salam-iloda] Sizlar, bolalar, men sizlardan yuqoriroqman.

Ey, yarmaslar, men sizlardam yuqori martabali odamman.

이 무정한 놈아, 영원히 저주를 받아라 [i mujeonghan nom-a, yeong-wonhi jeojuleul bad-ala]

Ey, bag'ritosh yaramas, abadiy la'natga qolgin.

O'zbek tilida nomard peyorativ murojaati ijtimoiy hukmsifatida orqadan yashirincha zarba bergan yoki eng kerakli paytda tashlab ketgan erkakka nisbatan qo'llaniladi:

Yerga mixlangandek qotib qolgan, nima qilishimni bilmasdim. Qiziq, oyim chekinmadi.

– Urmoqchimisan? – dedi titrab. – Ur, nomard!¹¹

Yana shunga o'xshash murojaatlardan biri xoin bo'lib, u ishongcni yo'qotgan, xiyonat qilgan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Xoinlik nafaqat shaxsiy nuqson, balki ijtimoiy jinoyat sifatida baholanadi. Mazkur murojaatdan shaxsni ijtimoiy rad etish maqsadida istifoda etiladi:

– Hammangni qator qo'yib, bittama-bitta peshonangdan otish kerak!

Hammangni! Avlod-ajdoding bilan! Xoinlar!¹²

2) Axloqsizlik va betayinlikni bildiruvchi murojaatlar. Mazkur guruhga kiruvchi murojaatlar ko'proq ayollarga nisbatan ishlatilib, bu o'rinda kamsitish axloqiy me'yorlarni buzishga qaratiladi.

Koreys tilida ko'pincha erkaklar tarafidan ayolni kamsitish maqsadida qo'llaniladigan peyorativ murojaatlardan biri 계집 [gyejip] so'zidir. Bu murojaat o'ta qo'pol, kamsituvchi kuchli salbiy munosabatni ifodalaydi.

Sino-koreys tilidag 계집 [gyejip] atamasi ← 계 [gye] “kim?”, “qaysi?”, “past darajadagi kimsa” + 집 [jip] “xizmatkor ayol”, “cho'ri” so'zlaridan yasalgan bo'lib, qadimda “past darajadagi xizmatkor ayol” ma'nosida ishlatilgan. Qadimgi Xitoy manbalarida bu so'z dastlab “past ijtimoiy tabaqaga mansub ayol” ma'nosida qayd etilgan. 계집 [gyejip] atamasidan xizmatkor ayollarga xitob qilishda istifoda etilgan.

¹¹ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 603.

¹² Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 376.



XV-XVII asrlardagi yozma koreys manbalarida 계집 [gyejip] soʻzi neytral maʼnoda ayol va qizlarga nisbatan ham qoʻllanilgan. Keyingi davrlarda ayollarni kamsitish, ularga past nazar bilan qarashning kuchayishi natijasida 계집 [gyejip] soʻzining maʼnosidagi salbiy oʻttenka kuchayib borgan.

저 같은 계집이 찾아와 선생님의 명예에 상관이 아니 되겠습니까¹³. [jeo gat-eun gyejib-i chaj-awa seonsaengnim-ui myeong-yee sang-gwan-i ani doegesseubnikka]

Mendek bir bechora ayolning kelishi sizdek ustozning shaʼniga putur yetkazmaydimi?

Mazkur misolda ayolning oʻzini kamsitishi, oʻzini pastga urishi koʻrsatilgan.

Qayd etilganlar bilan birga, koreys tilida 이년 [inyeon] soʻzi qoʻpol, keskin haqoratni anglatib, faqat ayollarga nisbatan ishlatiladi. 이년 [inyeon] leksemasi 이 [i] bu, ana u koʻrsatish olmoshi va 년 [nyeon] ayollarga qaratilgan kamsituvchi birlikdan tashkil topgan boʻlib, shaxsni predmetga nisbat qilish orqali gʻazab va nafratni ifodalaydi. Masalan:

이년아! 이 우리 빛난 가문을 더럽히는 년아! 어린 계집이 뉘꼬임에 들어벌써 몸을 더럽혔느냐!¹⁴ [inyeona! i uli bichnan gamun-eul deoleobhineun nyeona! eolin gyejibi nwikkoime deuleobeolsseo momeul deoleobhyeossneunya]

Iflos qiz! Bizning shonli oilamizni bulgʻagan sen! Bu yosh ayolni kim aldab, uning tanasini allaqachon bulgʻagan!

Oʻzbek tilida jinsiy axloqsizlikni ayblash, toʻgʻridan-togʻriga haqorat qilish maʼnosida, oʻta kamsituvchi fohisha peyorativ murojaati qoʻllaniladi:

Zaynab oʻzida qandaydir kuch topib, bu qoʻlni urib yubordi-da, oʻrnidan turdi:

– Hayvon! Fohisha! Yoʻqol! — deb baqirdi¹⁵.

Oʻzbek tilida, asosan, ayollarga nisbatan qoʻllaniladigan keskin tahqirlovchi, oʻta qoʻpol haqorat sifatida jalab peyorativ murojaati ishlatiladi. Bu soʻz vositasida ayolga “axloqsiz”, “uyatsiz” tamgʻasi bosilib, uning shaxsi axloqiy-ijtimoiy jihatdan keskin inkor qilinadi:

Nima deyishka ham hayron tabib: – Man... man... oʻzingiz oʻylab koʻring-chi... Man darrav doru yuboray, darrav ichiring, tuzikmi? – dedi.

– Bildim, bildim! — dedi bechora Otabek. – Zay-nab, Zaynab, Zaynab... Jalab! Yuboring, yuboring, darrav yuboring!¹⁶

¹³ 이광수. 무정 전문, 매일 선보, 1925. 4 쪽.

¹⁴ 이광수. 무정 전문, 매일 선보, 1925. 12 쪽.

¹⁵ Малик Тоҳир. Шайтанат. Иккинчи китоб. – Б. 177. <https://www.ziyouz.com>.

¹⁶ Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – B. 217. <https://www.ziyouz.com>.



3) Ijtimoiy mas'uliyatsizlikni ifodalovchi murojaatlar guruhida, asosan, jamiyat oldidagi burchini bajarmaslik tanqid qilinadi. Ushbu peyorativ murojaatlar orqali shaxsning "jamiyatga keraksizligi" uqtiriladi.

Koreys tilida:

“이런 오라질 년, 주야장천 누워만 있으면 제일이야! 남편이 와도 일어나지를 못해.”¹⁷ [Ireon orajil nyeon, juyajangcheon nuwoman isseumyeon jeiriya! Nampyeoni wado ireonajireul mothae.]

– La'nati xotin, senga faqat ertadan kechgacha to'shakda cho'zilib yotish bo'lsa! Hatto eringni kutib olishga ham yaramaysan!

“그 녀석 말투가 , 어른들과..... ”¹⁸ () [Geu nyeoseog maltuga , coleundeulgwa.....]

– Ha yaramas! Kattalar bilan qanday gaplashyapsan?

O'zbek tilida quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Bolalarimning rizqini halol topaman. Senlarga o'xshagan bekorchi bo'lganimda biqsib yotaverardim. Manziratiga javoban «shiringina» gap eshitgan Chuvrindi hojasiga qarab, bosh chayqab qo'ydi¹⁹.

Yoki:

Olomon junbishga kelib uv tortib yubordi.

– Haromi! – dedi kimdir hayqirib.

– Nahs-kasofat!

– Ur, ur, itvachchani!²⁰

Xulosa. Koreys va o'zbek diskursidagi axloqiy hamda ijtimoiy baho beruvchi peyorativ murojaatlarning tahlili peyorativ murojaatlarning nutqiy jarayondagi nafaqat salbiy baho beruvchi vosita, balki jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, odob-axloq mezonlarini ham aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar ekanligini ko'rsatdi.

O'zbek diskursidagi peyorativ murojaatlarning aksariyati suhbatdoshlarning axloqi, ijtimoiy xulqi hamda milliy qadriyatlarga zid xatti-harakatlarni baholashga qaratilgan. Peyorativ murojaatlarning qo'llanilishida kuchli emotsional-ekspressivlik hamda salbiy bahoning bevosita, ochiq ifodalanishi ustuvorlik qiladi.

Koreys diskursida esa peyorativ murojaatlarning qo'llanilishida ijtimoiy mavqe, yosh, suhbatdoshlar orasidagi psixologik masofa, shuningdek, “o'ziniki va begona” omillarning qat'i shartlanganligi kuzatiladi. Peyorativ murojaatlar ko'pincha bilvosita, implisit (yashirin) tarzda, kontekstga bog'liq holda ifodalanadi. Buni koreys diskursida

¹⁷ 현진건. 운수 좋은 날, 개벽, 1924. 225 쪽.

¹⁸ 이효석. 메밀꽃 필 무렵, 조광, 1936. 77 쪽.

¹⁹ Малик Тоҳир. Шайтанат. Учинчи китоб. – Б. 76. <https://www.ziyouz.com>.

²⁰ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 409.



nutq vaziyatiga mos murojaat shakllarini tanlashda iyerarxiya belgisining juda muhimligi bilan izohlash mumkin.

